

MATN STILISTIKASI VA TURLI MATNLARNING STILISTIK TAHLILI

Hakimov Muhammadxon Xo'jaxonovich

Filologiya fanlari doktori, Professor

Farg'ona Davlat Universiteti

Ergasheva Umida Ravshan qizi

Magistratura Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs

Fargona davlat universiteti

E-mail: ergashevaumida359@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikda juda dolzarb bo'lgan mavzu matn stilistikasi haqida so'z yuritib, avvalo, stilistika, ya'ni uslubshunoslik tushunchasini batafsil yoritadi. So'ngra, matn termini va uning turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli matnlardan namunalar keltirilib, ularning uslubi va stilistik vositalari izohlanadi.

Kalit so'zlar. Uslub, uslubshunoslik, stilistika, matn, matn turlari, badiiy matn, lirik matn, dramatik matn, grammatik vositalar, ohang.

TEXT STYLISTICS AND STYLISTIC ANALYSIS OF VARIOUS TEXTS

Abstract. This article gives information about text stylistics, a topic that is very relevant in linguistics, and first of all, it explains the concept of stylistics, in detail. Then, the term text and its types are analyzed. Also, examples from various texts are given, and their styles and stylistic tools are explained.

Keywords. Style, methodology, stylistics, text, types of text, artistic text, lyrical text, dramatic text, grammatical devices, tone.

ТЕКСТОВАЯ СТИЛИСТИКА И СТИЛИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗЛИЧНЫХ ТЕКСТОВ

Абстрактный. Эта статья дает информацию о стилистике текста, теме, которая очень актуальна в лингвистике, и, прежде всего, подробно объясняет понятие стилистики. Затем анализируются термин текст и его виды. Также приводятся примеры из различных текстов, объясняются их стили и стилистические средства.

Ключевые слова. Стил, методология, стилистика, текст, виды текста, художественный текст, лирический текст, драматический текст, грамматические приемы, тон.

Tilshunoslikda barcha sohalarning o'z davri bo'ladi. Ma'lum bir soha qaysidir davrda rivoj topadi, o'rganilib tadqiq etiladi, u bo'yicha ilmiy izlanishlar qilinadi. Kerak bo'lsa, sohaga o'zgarishlar kiritilib, tilshunos olimlar o'rtasida lingvistik muammolarga javoblar topiladi. Misol uchun, lingvokulturologiya yo'nalishi XX asrning 90-yillarida alohida fan sifatida ajralib chiqdi va o'shandan beri fanning dolzarb mavzulari deyarli ochildi, mustaqil fan sifatida keng ommaga batafsil taqdim etildi.

Biroq, biz hozir so'z yuritmoqchi bo'lgan Stilistika sohasi boshqa sohalardan keskin farq qilib, barcha davrlarning eng dolzarb sohasiga aylangan, shu paytgacha juda ko'p marotaba tadqiq etilganiga qaramasdan hali hamon tilshunoslik "shohsupasi"dan tushmay kelmoqda.

Kelib chiqishi uzoq Yunonistonga borib taqalib, yunoncha *stylos* — yozuv, xat tayoqchasi so'zidan olingan bo'lib, uslubshunoslik, uslubiyat — tilshunoslikning til uslublarini tadqiq etuvchi, tilning leksik-frazeologik, fonetik, morfologik, so'z yasalihi va sintaktik jihatlarini o'ziga xosliklarini o'rganuvchi, ayniqsa, adabiy tilni turli lisoniy vaziyatlarda, yozma, og'zaki adabiyotda tavsiflovchi keng sohadir. Stilistikada tildagi ma'noviy va ekspressiv nozikliklardan tortib, ma'nosi barchaga ham birdek tushunarli bo'lmagan mahalliy-lisoniy birliklar ham o'rganiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, u juda keng sohadir. Inson tilidan aytilgan har bir so'z stilistikada tahlil qilinishi mumkin. Tahlilga qo'yilgan material xoh badiiy matn ko'rinishida, xoh nazm (she'riy) matn ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Avvalo, matn so'zi qanday ma'noga ega ekanligini bir tahlil qilaylik:

Matn so'zi O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra "**yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat**" yoki "**bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi**"¹ degan ma'nolarni anglatadi.

Misol uchun:

Begona tildagi matnni tarjimon o'zi uchun talqin etishi bilan uni o'z tilida boshqalarga atab qayta yaratishi o'rtasida ulkan tafovut bor. (G'. Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish kitobidan)

Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan, og'zaki nutq namunalarida ham qo'llaniladi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o'rganiladi. I. R. Galperin matn xususiyatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, unga quyidagicha ta'rif beradi: „Matn bu yozma hujjat shaklida ob'ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik

¹O'zbek tilining izohli lug'ati. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, T. Mirzayev, N. To'xliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Xojiyev. 2006-2008. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan yozma xabardir"².

Inson voqelik va borliqni til va uning vositalari yordamida aks ettiradi. Bu turli vaziyatlarda ro'y beradi va shuning ta'sirida matnning turli ko'rinishlari yaratiladi. Shuning uchun, matn zamonaviy tilshunoslikda juda ko'p turlarni o'z ichiga oladi. Ularga badiiy matnlar, hikoya matni, lirik matn, dramatik matn, ilmiy matn, reklama matni va hatto raqamli matnlar ham kiradi.

Yuqorida aytilganidek, matnlar har qanday ma'lumotni yozib olishga imkon beradigan yozma hujjatlardir. Biroq, uning mazmunini to'g'ri talqin qilish uchun har bir matnning har xil turga javob berishi aniq bo'lishi kerak, demak u o'ziga xos maqsadlar va tarkibiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

Misol uchun:

Badiiy matnlar - bu estetik maqsadlarda foydalaniladigan matnlar. Ularda konnotativ til ustun bo'lib, metafora kabi turli badiiy san'atlar qo'llanilgan bo'ladi, undagi g'oyalar, his-tuyg'ular va dialoglar chuqur adabiylikka va estetik mohiyatga yo'g'rilgan bo'lib, ularni har doim to'g'ridan-to'g'ri til orqali tushuntirib bo'lmaydi.

Lirik matnlar - bu ilhom va jo'shqinlik bilan yuklangan she'riy tilni ishlatishdan kelib chiqadigan his-tuyg'ular va g'oyalarni ifoda etadigan matnlar, shuning uchun she'r uning asosiy ifodasidir. Qasddan sub'ektivlik uning xarakterli xususiyatlaridan biridir. Lirik matnlar ichida juda ko'p turli xil adabiy janrlar mavjud. Ular orasida biz madhiya matnlarini yaqqol misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Dramatik matnlar dialoglar yoki harakatlar orqali manzarani aks ettirish uchun mo'ljallangan. Ya'ni, dramatik matnlar teatr uchun yaratilgan matnlardir.

Matnning qaysi uslubga xos ekanligini uning tarkibidagi ohang, punktuatsiya, grammatik vositalar, tovush almashish va ortishi kabi grammatik hodisalar va ayniqsa so'zlar muhim ahamiyatga egadir.

Misol uchun, badiiy uslubga xos bo'lgan quyidagi parchan tahlil qilaylik. Buyuk ingliz yozuvchisi Shekspirning "Gamlet" asarida quyidagi jumlar mavjud bo'lib,

To be, or not to be – that is the question.

U o'zbek yozuvchisi va tarjimoni Cho'lpon tomonidan quyidagicha tarjima qilinadi.

Yo hayot, yo mamot- shudir masala.

Biroq, ushbu jumalarni shundayligicha tarjima qilinadigan bo'lsa quyidagicha gap hosil bo'ladi:

"borlik yoki yo'qlik – muammo shu".

Ammo, ushbu oddiy tarjima orqali matnning stilistikasini aniqlab bo'lmaydi.

² Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». — Т. 1. — М., 1974. — С. 67.

Yuqorida Cho'lpon tarjimasida esa (yo hayot, yo mamot-shudir masala) matnda qo'llanilgan badiiy so'zlarning bo'yoqdorligi (hayot, mamot, shudir, masala), oq she'r vazni (qofiya yo'q bo'lsa-da, so'zlarning ohangdorligi), badiiy grammatik vositalar (yo...yo) dan matnning badiiy uslubga xosligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Yoki ushbu namunaga e'tibor bering:

Dena iching – Dubayga uching. (“Dena” ichimlik reklamasi)

Yuqoridagi namuna reklama matniga xos bo'lib, aynan publitsistik uslub jihatlarini o'zida jamlaydi.

- ✓ Qisqalik;
- ✓ Qofiyalilik va jarangdorlik;
- ✓ Mantiqlilik;
- ✓ Iste'molchi xotirasida saqlab qolish uchun yetarlicha oson.

Albatta, reklama matnining maqsadi - bu mahsulot (har qanday obyekt turi, masalan, kitoblar, maishiy texnika, mashinalar, kvartiralar va hattoki turistik joylar) yoki xizmat (agentliklar, ko'chmas mulk, sayyohlik yoki sotish kompaniyalari va boshqa holatlarda) larni keng ommaga yoyish.

Uning qamrovi odatda juda katta: televidenie, gazetalar, ko'chadagi reklama taxtalari va ijtimoiy saytlar va tarmoqlarni ham o'z ichiga oladi.

Matn yaratish uchun har qanday yozuvchidan yuksak madaniyat, nozik did, aql va kuchli bilim va albatta so'zlarni, sifatlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay bilish mahorati talab qilinadi. Xususan reklama matni ham shular jumlasidandir. Chunki reklama matni so'zga va ma'noga boy bo'libgina qolmay, mantiqan mukammal yaratilgan bo'lishi kerak. Reklama matni har qanday o'quvchini o'zining ma'nodorligi, jozibaligi va hattoki she'riy ohangdorligi bilan ham jalb qilishi zarur bo'ladi. Reklama odatda o'quvchilar, tomoshabinlar va umuman iste'molchilar xotirasida saqlanib qolish uchun qayta-qayta takrorlanadigan qisqa iboralar (yoki shiorlar) bilan birga keladi.

Lekin ma'lum bir so'z yoki grammatik hodisa aynan bir uslubga xos deya olmaymiz. Chunki tilshunoslikda aynan birgina uslubga xos bo'lgan so'z yoki grammatik vosita mavjud emas. Misol uchun: qofiya va jarangdorlik stilistik jihatlari faqat reklama matniga emas, dramatik, lirik, badiiy matnlarda ham keng uchraydi. Shuning uchun ham stilistika sohasi ancha vaqtlardan beri dolzarb mavzu hisoblanib, hamon tilshunos olimlar diqqat markazidan tushmay kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Castañer, P. A. (1998). "Reklama matnlariga yondashuv". Og'zaki xushmuomalalikni tahlil qilishdan. *Analecta Malacitana*, 21(1 p.) 139. search.proquest.com saytidan olingan.
2. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // *Материалы научной конференции «Лингвистика текста»*.— Т. 1.— М., 1974.— С. 67.
3. Golub I.B. *Stilistika russkogo yazyka*. – М., 2010.
4. Vinokur G. O., *Izbrannie raboto' po russkomu yaziku*, М., 1959;
5. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. E. Begmatov, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, T. Mirzayev, N. To'xliyev, E. Umarov, D. Xudoyberganova, A. Xojiyev. 2006-2008. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
6. O'zbek tili stilistikasi, T., 1983.